

(22 Iyul, 2004 yil bo'yicha)

**Poraxo'rlikka qarshi va Xorijiy Korrupsiya
Faoliyati Aktidagi hisob-kitob va hujjatlarning o'rne**

1998 yil, 10 noyabridan joriy 105-366 nashrlari

QO'SHMA SHTATLAR KODI

15 NIZOM. SAVDO- SOTIQ

2B BO'LIM – MOLIYAVIY ALMASHINUVLAR

§ 78m. Oynomalar va boshqa hisobotlar

(a) Xavfsizlik ijrochisi tomonidan berilgan xisobotlar; mundarija

Ushbu bobning 78I qismiga binoan ro'yxatdan o'tgan har bir xavfsizlik ijrochisi qimmatbaho qog'ozlarni Komissiyaga yuborishi kerak. Komissiya qonun va qoidalarga muvofiq tarzda investorlarni o'rinli himoya qilish va adolatli kelishuvni kafolatlash shart yoki kerakli ekanligini belgilaydi--

(1) Komissiya shunday ma'lumot va hujjatlarni (va shuningdek nusxalarni) o'z vaqtida ariza yoki ro'yxatdan o'tish bayonoti bilan ushbu nizomning 78I qismida saqlashni talab qiladi. Komissiya 1962 yilning 1-iyuligacha bo'lgan to'la amalga oshirilgan har qanday kontrakt materiallarini hujjatlashtirilishni talab etmasligi mumkin.

(2) Shunday yillik hisobotlar (va ularning nusxalari) Komossiyaning qoidalari va qo'llanmalarini talab etadigan bo'lsa, Komissiya ko'rsatmasidek mustaqil jamoat xisobchilari tomonidan guvohlangan bo'lishi kerak.

Milliy moliyaviy almashinuvda ro'yxatga olingan har bir xavfsizlik ijrochisi olingan ma'lumotlarning asl nusxalari, hujjatlar va almashinuv borasidagi hisobotlarni duplikat holda hujjatlashtirishi kerak bo'ladi

(b) Bayonotning formasi, tartibi va ichki hisoboti; yo'llanmalar

* * *

(2) Ushbu nizomning 78I qismiga binoan turli qimmatbaho qog'ozlari ro'yxatga olingan ijrochi va ushbu nizomning 78o (d) ga bo'yicha bayonot berishlari talab qilingan har bir qimmatbaho qog'ozlarda quyidagilarni amalga oshirishi kerak:

(A) Ijrochining moliyaviy kirim-chiqimini va moliyaviy faoliyatini adolatli va to'laqonli aks ettiruvchi, hisobot hujjatlarini tuzish va saqlash; va

(B) ichki hisobotni boshqarish tizimini qaytadan ishlash va mukammallashtirish quyidagilarni to'laqonli ravishda kafolatlash uchun etarli--

(i) moliyaiy kirim-chiqim ma'muriyatning umumiy yoki aniq ko'rsatmasi bilan amalga oshiriladi;

(ii) Moliyaviy kirim-chiqim ro'yxatini tuzish (I) umumiy qabul qilingan hisob-kitoblarga yoki shu hisobotlarga mos har qanday boshqa kriteriyaga to'g'ri keladigan moliyaviy hisobotlar tayyorlashda va (II) mulkning hisobotlarini saqlashda muhim;

(iii) Mol-mulk hisobotlarini ishlatish imkoniyati faqat ma'muriyatning umumiy yoki aniq ko'rsatmasi bo'yicha amalga oshiriladi; va

(iv) Ro'yxatga olingan mulkning hisobotlari mavjud bo'lgan mulklarga vaqti-vaqti bilan taqqoslanadi va har bir kelishmovchilikda kerakli choralar e'tiborli ravishda amalga oshiriladi.

- (3) (A) Qo'shma Shtatlarning milliy xavfsizligiga kelsak, ushbu paragraf (2) hech qanday majburiyat yoki ma'suliyat Federal departamenti yoki agentligi bilan hamkorlikda ish olib borayotgan har qanday shaxs yoki ushbu jarayonda ma'suliyatli shaxs aniq bunday bo'lim boshlig'ining yozma ravishdagi hamkorligida yoki President tomonidan berilgan ko'rsatma ostida ishlayotgan shaxs bundan istesnodir. Ushbu paragraf ostida sodir bo'lgan harakatning har bir ko'rsatmasi aniq dalillarga ega bo'lishi va sharoitga ko'ra tasdiqlanishi kerak. Shu tarzda har bir ko'rsatma, agar yozma ravishda yangilangan bo'lmasa, berilgan kundan bir yil o'tgach o'z kuchini yo'qotadi.
- (B) Amerika Qo'shma Shtatlarining ushbu paragrafni qo'llab shunday ko'rsatma bergan har bir Federal bo'limi yoki agentlik boshlig'i ushbu ko'rsatmalar bo'yicha hujjatlarni to'liq saqlashi, va, har yilning 1 oktyabr kuni, o'tgan yili amalda oshirilgan ko'rsatmalarning nusxasini Vakillar Uyining Doimiy Axborot Tanlov Qo'mitasi va Senatning Axborot Tanlov Qo'mitasiga topshirishi lozim.

(4) (2) paragrafning talablarni bajarishdagi muvaffaqiyatsizlik hech qanday jinoiy javobgarlikka tortilmaydi, ammo (5) paragraf bundan mustasnodir.

(5) Hech bir shaxs, bilgan holda paragraph (2)da ta'riflangan hisob-kitoblarni, hisobot daftarlarini va hisob raqamlarini tatbiq qilishi yoki bilgan holda ichki hisob-kitob raqamlarini soxtalashtirishi mumkin emas.

(6) Ushbu nizomning 78I qismiga binoan ro'yxatga olingan qimmatbaho qog'ozlarga ega va shu nizomning 78o(d) bo'yicha bayonat berishi talab kilingan ijrochi 50 sentumga yoki mahalliy va xorijiy firmalarda ovoz berish kuchinigi kamiga ega bo'ladi. (2) paragraf ijrochidan faqatgina berilgan ta'sir kuchidan oqilona tarzda foydalanishni, ijrochining ma'lum bir holatiga qarab, ushbu mahalliy yoki xorijiy firmanni (2) paragrafga mos ravishda ichki hisobotlar tizimini ishlab chiqishga va saqlashga undashni so'raydi. Bunday holatlar ijrochining mahalliy va xorijiy firmadagi egalik darajasini va firma joylashgan mamlakatning tijoratni boshqarsih amallari va qonunlarini o'z ichiga oladi. Ushbi ta'sir kuchidan oqilona foydalana oladigan ijrochi (2) paragrafning talablarini bajarganligiga to'laqonli ishonch hosil qilishi kerak.

(7) Ushbu qismning paragraf (2) maqsadida, atamalar "mantiqiy ishonchlar" va "mantiqiy tafsilot" shunday ishonchning tafsilot va darajasi e'tiqodli amaldorlarni o'z majburiyatlarini bajarishlariga undaydi.

§ 78dd-1 [1934 yilning Qimmatbaho Qog'ozlar va Almashinuv Aktining 30A qismi].

Ijrochi tomonidan taqiqlangan xorijiy savdo amaliyoti

(a) Ta'qiq

Ushbu nizomning 78I qismiga binoan ro'yxatga olingan qimmatbaho qog'ozlarga ega va shu nizomning 78o(d) bo'yicha bayonat berishi talab qilingan ijrochi yoki shu ijrochining har qanday ishchi xodimlari va agenti yoki ijrochi tomonidan ish olib boruvchi aksiyadorning har qanday ma'noda Shtatlar aro savdo agentliklarini poraxo'rlikka undab, ularga pul taklif qilish yoki pul to'lashga va'da berishi, qimmatbaho qiymatga ega bo'lgan har qanday narsalarni—

(1) har qanday xorijiy davlat vakiliga quyidagi maqsadni ko'zlab berish noqonuniy bo'lishi lozim-

(A) (i) Xorijiy davlat vakilining har qanday harakati yoki ushbu vakil o'zining ish faoliyati ostida chiqargan har bir qaroriga ta'sir o'tkazish, (ii) ushbu xorijiy vakilning qonunga qarshi bo'lgan majburiyatlarni amalga oshirishga va uni e'tibordan tashqarida qoldirishga jalb etishi, yoki (iii) har qanday noqonuniy faoliyatni qullab quvvatlash; yoki

(B) Ushbu ijrochiga tijorat faoliyatini qo'lga kiritishda, saqlab qolishda, yoki tijoratni boshqa shaxsga topshirish yo'lida yordam berish uchun;

ushbu xorijiy davlat vakilini xorijiy davlatga va shu davlatning ish uslubiga bo'lgan ta'sirini ishlatishga undash orqali shu xorijiy davlatning akt va qarorlariga ta'sir o'tkazish.

(2) Har qanday siyosiy partiya, yoki xodim, yoki xorijiy siyosiy o'ringa nomzod ushbu maqsadni ko'zlab -

(A) Ushbu partiyaning har qanday harakatiga yoki qaror chiqarishiga, amaldor, yoki nomzod o'zining amaldorlik salohiyati bilan ta'sir o'tkazishi, (ii) shu partiya, xodim, yoki nomzodning qonuniy majburiyatlarini buzishga undash yoki noqonunchilikka e'tibor bermaslik, yoki (iii) noqonuniy faoliyatni qullab quvvatlash; yoki

(B) Ushbu ijrochiga tijorat faoliyatini qo'lga kiritishda, saqlab qolishda, yoki tijoratni boshqa shaxsga topshirish yo'lida yordam berish uchun;

ushbu partiya, xodim yoki nomzodni xorijiy davlatga va uning ish uslubiga bo'lgan ta'sirini ishlatishga undash orqali shu xorijiy davlatning akt va qarorlariga ta'sir o'tkazish.

(3) har bir shaxs, mablag'ning hammasi yoki biron bir qismi yoki qimmatbaho narsani har qanday xorijiy amaldor yoki xorijiy siyosiy partiyaga, yoki har qanday xorijiy siyosiy o'ringa mos nomzodga ushbu maqsadda taklif etilganini bila turib,

(A) (i) Bunday partiyaning har qanday harakatiga yoki qaror chiqarishiga, amaldor, yoki nomzod o'zining amaldorlik salohiyati bilan ta'sir o'tkazishi, (ii) bunday partiyaning majburlashi, amaldor, yoki nomzodni ushbu partiyaning qonunlarini buzishga majburlashi yoki noqonunchilikka e'tibor bermasligi, yoki (iii) har qanday noqonuniy harakatni qo'llab quvvatlashi; yoki

(B) Ushbu ijrochiga tijorat faoliyatini qo'lga kiritishda, saqlab qolishda, yoki tijoratni boshqa shaxsga topshirish yo'lida yordam berish uchun;

shunday xorijiy amaldorni, siyosiy partiyaning, yoki nomzodni o'z nufuzini xorijiy hukumatning va shu hukumatning ish uslubiga ta'sir ko'rsatishga undash orqali, ushbu hukumatning har bir harakati va qaror chiqarishiga yoki ish uslubiga ta'sir o'tkazish.

(b) Doimiy davlat harakati uchun mustasno

Ushbu bo'limning quyi (a) va (g) qismi xorijiy vakil, siyosiy partiya rasmiysining doimiy davlat harakatini bajarilishini ta'minlashi uchun beriladigan har qanday to'lovni tezlashtirishda qo'llanilmaydi.

(c) Ijobiy mudofaa

Bu bo'limning (a) va (g) qismidagi harakatlar ijobiy mudofaa deb hisoblanadi--

(1) To'lov, sovg'a, yoki biron bir qimmatbaho narsani taklif etish xorijiy vakil, siyosiy partiya va partiya rasmiysining yoki nomzodning mamlakatidagi qonun va qoidalarga muvofiq bo'lsa; yoki

(2) Amalga oshirilgan va va'da qilingan biror to'lov, sov'ga yoki va'da etilgan qimmatbaho buyum xorijiy va partiya rasmiylarining sayohati va turar joy to'lovlariga asoslangan holda to'g'ridan-to'g'ri quyidagilarga bogliq bo'lsa--

(A) Lavozimni oshirish, namoyish yoki mahsulot va xizmatlarning bayonnomasi; yoki

(B) Xorijiy davlat yoki agentliklari bilan shartnoma tuzish yoki shartnoma ustida ishlash

(d) Bosh prokuror ko'rsatmalari

1988 yilning 23 avgustidan bir yil o'tishiga qadar, Bosh Prokuror, Komissiya, Tijorat Vaziri, Amerika Qo'shma Shtatlar Savdo Vakili, Davlat Kotibi, Xazina Kotibi bilan maslahatlashuvdan so'ng, jamoa fikri, ishtirok etuvchi barcha shaxslarning talab va takliflarga qarab, ushbu qismga qanday o'zgartirishlar kiritilishi, biznes jamoasiga xizmat ko'rsatilishi borasida kengroq aniqlik kiritilishiga asoslanib kerakli va o'rinli qaror chiqaradi --

(1) Bosh Prokuror Adliya Vazirligining joriy dasturini ko'zlagan holda, oddiy turdagi eksport savdo-sotiq kelishuvlari va tijorat shartnomalarining aniq harakatlariga ushbu qismning oldingi ko'rinishiga moslab o'zgartirishlar kiritadi; va

(2) Ijrochi ushbu qismning shartlariga mos ravishda, o'z xohishi bilan qo'llaydigan umumiy ehtiyotlik choralari Adliya Vazirligining joriy dasturiga muvofiq bo'lishi kerak.

Bosh Prokuror ko'rsatmalar va jarayonlarni 5 nizomning 5 bo'limi II kichik bo'limiga binoan kiritadi va ushbu ko'rsatmalar va jarayonlar 7 bo'limining asosiy mavzusi bo'ladi.

(e) Bosh prokurorning fikri

(1) Bosh Prokuror, Amerika Qo'shma Shtatlarining barcha tegishli bo'limlari va agentliklari bilan maslahatlashganidan keyin jamoa va ishtirok etuvchi barcha shaxslarning fikrlarini bilgan holda, ijrochidan tushadigan aniq talablardan kelib chiqib, shu qismning yuqoridagi shartlariga bog'liq Adliya Vazirligining joriy dasturiga muvofiq tarzda, bajariladigan ish tartibini belgilashi kerak. Bosh Prokuror shunday talabni qabul qilganidan 30 kun o'tgach o'z fikrini bayon qilishi lozim. Uning fikri, Adliya Vazirligining joriy dasturini ko'zlagan holda amalga oshiriladigan harakat ushbu bo'limning shartlarini buzish-buzmasligini aniq tasdiqlashi kerak. Bundan oldin aytib o'tilgan jarayonning shartlariga to'g'ri kelmaydigan harakatlar haqidagi qo'shimcha qarashlar yozma ravishda Bosh Prokuror Idorasiga yuborilishi kerak. Ijrochi tomonidan talabnomada ko'rsatilgan, ushbu qismning shartlariga muvofiq tarzda amalga oshiriladigan har qanday jarayonda, Bosh prokurorning ushbu jarayonni Adliya Vazirligining amaldagi qonunni muhofaza qilish siyosatiga mos kelishini tasdiqlashi va ushbu jarayon bo'limning oldingi shartlariga mos kelish tasdig'i haqida hech qanday gumon bo'lmasligi kerak. Ushbu taxmin ashyoviy dalillar ostida rad etilishi mumkin. Ushbu tushunchani paragrafning shartlariga muvofik tarzda olsak, sud Bosh Prokurori topshirilgan ma'lumotlarga tegishli hamma faktorlarni to'g'ri va to'liq o'lchab ko'rishi kerak. Bosh prokuror 5 nizomning 5 bo'limi II kichik bo'limiga binoan, ushbu paragraf tomonidan talab qilingan jarayonni ishlab chiqishi kerak.

(2) Ijrochining talabnomasi ostida 1 paragrafga binoan ish jarayonini ishlab chiqishga bog'liq, Adliya Vazirligi yoki har qanday boshqa Qo'shma Shtatlar agentligi tomonidan o'rnatilgan, tayyorlangan, yoki qabul qilingan har qanday hujjat yoki ma'lumotlar 5 Nizomning 552 qismi ostida ma'lumot berishdan ozod qilinadi va ijrochining ruxsatisiz rasmiy namoyishga qo'yilmaydi.

(3) Paragraf (1) ostida Bosh Prokurorga talab yuborgan har qanday ijrochi Bosh Prokuror o'z

fikrini bayon qilishidan oldin o'zining talabini qaytarib olishi mumkin. Qaytarib olingan talab hech qanday kuchga va ta'sirga ega bo'lmaydi.

(4) Bosh prokuror iloji boricha Adliya Vazirligining amaldagi muhofaza siyosati bo'yicha ushbu bo'limning shartlari mos ravishda bo'lajak eksportchilarga va bu bunday savollar bo'yicha maxsus maslahatlar ola olmagan kichik bizneslarga o'z vaqtida ko'rsatmalar bershi lozim. Ushbu ko'rsatma (1) paragraf ostidagi, bo'lajak maxsus boshqarmaning, ushbu qismdagi, majburiyatlarga rioya qilish umumiy tushunchalariga tegishli Adliya Vazirligining amaldagi qonunini muhofaza qilish siyosatiga mosligi to'g'risidagi talabnomaga bo'lgan javoblari cheklangan bo'lishi kerak.

(f) Ta'riflar

Ushbu bo'lim uchun:

- (1) A) "xorijiy vakil" atamasi har qanday xodim yoki xorijiy hukumat xizmatchisi yoki har qanday vazirlik, agentlik, yoki o'rtadagi shaxs, yoki jamoat xalqaro tashkiloti, yoki shunday davlat, vazirlik, agentlik, yoki o'rtadagi shaxs tomonidan boshqaruv olib borayotgan shaxs, yoki ular uchun, yoki ular nomidan yuqoridagi shunday xalqaro tashkilot nomidan ish olib borayotgan shaxsni bildiradi.
(B) quyi paragraf (A) uchun, "jamoat xalqaro tashkilot" ma'nosi quyidagilarni bildiradi --
 - (i) Xalqaro Tashkilot Immunitetlari Aktining 1 qismiga binoan Ijroi Buyruq bo'yicha tuzilgan tashkilot (22 U.S.C. § 288); yoki
 - (ii) Bu bo'lim maqsadlari uchun President tomonidan Ijroi Buyruq orqali tashkil etilgan har qanday boshqa xalqaro tashkilot, ushbu buyrug'ning Federal Ro'yxatga kiritilgan namoyish sanasidan boshlab kuchga kiradi.
- (2) (A) biron bir shaxsning idroki bu bajarmoq, vaziyat, yoki natijaga bog'liq agar --
 - (i) Ushbu shaxs ma'lum shaxsning ma'lum bir jarayonga aloqasi borligidan, shunday vaziyatning mavjudligidan va bu qanday natijaga olib kelishidan xabardor bo'lsa; yoki
 - (ii) Shundah shaxs xaqiqatdan ham shunday vaziyat borligi yoki qanday natija kelib chiqishi to'g'risida to'laqonli ishonchga ega bo'lsa
- (B) Qachonki aniq bir vaziyatning mavjudligiga bog'liq axborot qonunbuzarlik uchun talab etilsa, agar shaxs shu vaziyatning mavjudligi to'g'risida aniq dalilga ega bo'lsa ushbu axborot tasdiqlanadi.
- (3) (A) "doimiy hukumat harakati" atamasi faqatgina quyida ko'rsatilgan, xorijiy rasmiyning oddiy va tez-tez bajarib turadigan harakatini bildiradi --
 - (i) Shaxsga xorijiy davlatda biznes yuritish imkonini beruvchi ruxsatnomalar va boshqa hujjatlar;
 - (ii) Viza va ish faoliyatini bajarish haqida buyruq kabi davlat hujjatlarini amalga oshirish;
 - (iii) Politsiya himoyasini, xat olish yoki ularni yetkazib berishni ta'minlash, yoki shartnoma bajarilishi yoki narsalarni mamlakat orqali ko'chirishga asoslangan tekshiriluvlar vaqtini belgilash
 - (iv) Telefon xizmatlari, chiroq va suv bilan ta'minlash, yuklarni ortish va tushirish, tez buziladigan maxsulotlarni avaylash va narsalarni buzilishdan himoya qilish; yoki
 - (v) Shunga o'xshagan boshqa amaliyotlar.
- (B) "Davlatning doimiy harakati" atamasi o'z ichiga, xorijiy davlat amaldori tomonidan ayrim partiyaga tegishli yangi biznes ochish uchun yoki bu biznesni quvvatlash uchun , yoki uning qay

holda chiqarganiga qaramay qaror chiqarishda xorijiy amaldor ishtirok etgan, yangi biznes ochilda yoki uni quvvatlashda qaror chiqarishini olmaydi.

(g) Muqobil yurisdiksiya

(1) Shuningdek, Amerika Qo'shma Shtatlarining, yoki Shtat territoriyasi, mulki, Amerika Qo'shma Shtatlariga hamdo'st bo'lgan davlat qonunlariga binoan birlashgan va nizomning 12 qismiga ko'ra ro'yxatga olingan qimmatbaho qog'ozlarga ega yoki shu nizomning 15 (d) qismiga ko'ra hisobot topshirilishi talab qilingan ijrochi, yoki Amerika Qo'shma Shtatlari shaxsi bo'lgan, shu ijrochining har qanday xodimi, ishchisi yoki ijrochi nomidan ish yurituvchi aksiyador Amerika Qo'shma Shtatlaridan tashqarida to'lov tavsiya qilish, pul to'lashga va'da berish, yoki har qanday shaxsga, tashkilotga to'lov to'lashga yoki biror bir qimmatbaho buyum berishga ko'rsatma berish orqali poraxo'rlik bilan ish olib borsa, ushbu qismning (a) kichik qismidagi (1), (2) va (3) paragraflarida bayon etilganidek, ijrochi yoki amaldor, rahbar, xizmatchi, xodim yoki aksiyador tomonidan pochta yoki shunga o'xshash yo'llarni yoki shtatlar aro savdoni ushbu sovg'a, to'lov, va'da yoki buyruq berish yo'lida qo'llashi qonunga qarshi bo'lishi lozim.

(2) Ushbu bo'limda ishlatilganidek, "Qo'shma Shtatlar shaxsi" atamasi Amerika Qo'shma Shtatlarining fuqorosi (Imigratsiya va Millat Aktining 101 moddasida ko'rsatilganidek (8 U.S.C. § 1101)) yoki Qo'shma Shtatlar, yoki Shtat hududi, mulki, Qo'shma Shtatlarga hamdo'st bo'lgan davlatning qonunlariga asosan tuzilgan har qanday korporatsiya, qo'shma korxonona, aksiynerlik kompaniyasi, biznes ishonch birlashmasi, korporatsiyalashtirilmagan tashkilot, yoki yakkahol xo'jalikni anglatadi.

§ 78dd-2. Mahalliy kompaniyalar tomonidan man etilgan xorijiy tijorat

(a) Ta'qiq

Qimmatbaho qog'ozlarga ega bo'lgan har qanday ijrochi uchun, yoki har qanday xodim, rahbar, xizmatchi yoki agent yoki aksiyador va bunday shaxs nomidan harakat qilishi, yoki har qanday ma'noda shtatlar aro savdo agentliklarini poraho'rlikka undab, ularga pul taklif qilishi, yoki to'lashga va'da berishi, yoki har qanday qiymatdagi pul to'lashga buyruq berishi, yoki taklif qilishi, sovg'a, berishga va'da, yoki qimmatbaho qiymatga ega bo'lgan har qanday narsalarga ruxsat berishi noqonuniy hisoblanadi

(1) Har qanday xorijiy amaldor quyidagini ko'zlab--

(A) (i) xorijiy amaldorning har qanday harakatiga yoki qaror chiqarishiga ta'sir o'tkazish, (ii) shunday xorijiy amaldorni qonunga to'g'ri kelmaydigan ish-harakat qilish yoki noqonuniy harakatni e'tiborsiz qoldirishga undash, yoki (iii) har qanday noqonuniy harakatni qo'llab-quvvatlash; yoki

(B) Ushbu mahalliy biznesga tijorat faoliyatini qo'lga kiritishda, saqlab qolishda, yoki tijoratni boshqa shaxsga topshirish yo'lida yordam berish maqsadida,

Shunday xorijiy amaldorni, siyosiy partiyani, yoki nomzodni o'z nufuzini xorijiy hukumatning va shu hukumatning ish uslubiga ta'sir ko'rsatishga undash orqali, ushbu hukumatning har bir harakati va qaror chiqarishiga yoki ish uslubiga ta'sir o'tkazish.

(2) har qanday xorijiy siyosiy partiya yoki amaldor, yoki xorijiy siyosiy mansab nomzodiga quyidagi maqsadda --

(A) (i) o'z kuchi yoki mansabini ishlatib shunday partiyaning yoki nomzodning harakatiga yoki qaror chiqarishiga ta'sir ko'rsatmoq (ii) shunday partiya, amaldor, yoki nomzodning qonunga qarshi ish olib borish yoki noqonuniy harakatni e'tiborsiz qoldirishga undash, (iii) yoki noqonuniy jarayonni qo'llab-quvvatlash; yoki

(B) Shunday mahalliy biznesga tijorat faoliyatini qo'lga kiritishda, saqlab qolishda, yoki tijoratni boshqa shaxsga topshirish yo'lida yordam berish maqsadida; yoki

Shunday xorijiy amaldorni, siyosiy partiyani, yoki nomzodni o'z nufuzini xorijiy hukumatning va shu hukumatning ish uslubiga ta'sir ko'rsatishga undash orqali, ushbu hukumatning har bir harakati va qaror chiqarishiga yoki ish uslubiga ta'sir o'tkazish;

(3) Har qanday shaxs, shunday pullarning yoki narsalarning hammasi yoki ayrim qismi to'g'ridan to'g'ri yoki boshqa yo'l bilan har qanday xorijiy amaldorga, siyosiy partiyaga, yoki xorijiy siyosiy amaldorga taklif qilinishini, va'da berilishini bila turib, ushbu maqsadda--

(A) (i) shunday siyosiy xorijiy amaldorga, siyosiy partiyaga yoki nomzodga o'z kuchini yoki mansabini ishlatgan holda ta'sir ko'rsatmoq, (ii) shunday xorijiy amaldorni, siyosiy partiyani, partiya amaldori yoki nomzodini qonunga zid ishlarni bajarishga, yoki (iii) noqonuniy jarayonni qullab-quvvatlashga zo'rlash; yoki

(B) Shunday mahalliy biznesga tijorat faoliyatini qo'lga kiritishda, saqlab qolishda, yoki tijoratni boshqa shaxsga topshirish yo'lida yordam berish maqsadida,

Shunday xorijiy amaldorni, siyosiy partiyani, yoki nomzodni o'z nufuzini xorijiy hukumatning va shu hukumatning ish uslubiga ta'sir ko'rsatishga undash orqali, ushbu hukumatning har bir harakati va qaror chiqarishiga yoki ish uslubiga ta'sir o'tkazish;

(b) Davlatning doimiy harakatlariga mustasno

Ushbu bo'limning quyi (a) va (i) qismi xorijiy vakil, siyosiy partiya rasmiysining doimiy davlat harakatini bajarilishini ta'minlashi uchun beriladigan har qanday to'lovni tezlashtirishda qo'llanilmaydi.

(c) Ijobiy mudofaa

Ushbu bo'limning (a) yoki (i) qismidagi harakatlar ijobiy mudofaa deb tan olinadi --

(1) To'lov, sovg'a, yoki biron bir qimmatbaho narsani taklif etish xorijiy vakil, siyosiy partiya va partiya rasmiysining yoki nomzodning mamlakatidagi qonun va qoidalarga muvofiq bo'lsa; yoki;

(2) Amalga oshirilgan va va'da qilingan biror to'lov, sovg'a yoki va'da etilgan qimmatbaho buyum xorijiy va partiya rasmiylarining sayohati va turar joy to'lovlariga asoslangan holda to'g'ridan to'g'ri quyidagilarga bogliq bo'lsa--

(A) Lavozimda ko'tarilish, namoyish yoki mahsulot yoki xizmatlarning bayonnomasi; yoki

(B) Xorijiy davlat yoki agentliklar bilan shartnoma tuzish yoki shartnoma ustida ishlash

(d) Sud ta'qiqlari

(1) ushbu bo'limga ta'luqli mahalliy biznes, yoki amaldor, rahbar, xizmatchi, agent yoki aksiyador (a) yoki (i) bo'limidagi shartlarni buzuvchi harakatga aloqador bo'lsa, yoki aloqador bo'lish jarayonida bo'lsa, Bosh prokuror ehtiyotlik bilan ushbu harakat yoki amaliyotni Amerika Qo'shma Shtatlarining mansub tuman sudida fuqarolik ishini qo'zg'aydi va ushbu harakat tasdiqlansa, sudning doimiy yoki vaqtinchalik ta'qiqni, cheklov pul bilan chiqarishsiz qo'yadi.

(2) Fuqarolik tekshiruv ishlarini olib borish maqsadida, Bosh prokurorning fikri bo'yicha ushbu bo'limni kiritish va joriy qilish lozim. Bosh prokuror yoki uning belgilagan shaxslar qasam ictirish va aniqlash, guvohlarni tekshirish, dalillarni to'plash, Bosh prokurorning fikricha ish jarayoniga tegishli xisob-kitob va boshqa kerakli hujjatlarni to'plashni amalga oshitishga vakolat berishi mumkin. Guvohlarning qatnashishi va dalillik hujjatlarini to'plash Amerika Qo'shma Shtatlari, uning hududlari, unga qarashli yerlar va hamdo'slik davlamlarda amalga oshirilishi va belgilangan joyda sud o'tkazilishi mumkin.

(3) Har qanday guvohning sudga kelmasligi, yoki sudga kelish taklifnomasiga bo'ysunmasligi, Bosh prokuror shunday tekshiruvlar va jarayonlarni o'z ichiga kiritadigan yurisdiksiya, ushbu shaxs yashash joyi, yoki ish amaliyotini olib borish joyiga bog'liq dalillik ko'rsatmasi berilishi talab qilingan

yoki tegishli qog'ozlar va tegishli hujjatlar talab qilinishida Amerika Qo'shma Shtatlarining har qaysi sudidan yordam so'rashi mumkin. Shu sud ushbu shaxsni Bosh prokuror yoki u tomonidan belgilangan shaxsning oldiga kelishni, agar talab qilingan bo'lsa, hujjatlarni tavsiya qilishni, ko'rsatmalar berishni va ushbu tekshirish borasida guvohlik berishni talab qilishi mumkin. Sudning shunday buyrug'iga bo'ysunmaslik mensimaslik deb topilib ayblanadi.

Shunday holatdagi hamma harakatlar ushbu shaxs istiqomat qilish tumanida yoki u topilgan tumanda bajariladi. Bosh prokuror shunday fuqarolik tekshirishi va ta'luqli qonunni oldingi bo'limlarni amalda oshirish uchun shart yoki to'g'ri deb topishi mumkin.

(e) Bosh prokuror tomonidan belgilangan ko'rsatmalar

1988 yilning 23 avgustidan 6 oy o'tmasligidan avval, Bosh prokuror, Xavfsizlik va Almashinuv Komissiyasi, Tijorat kotibi, Qo'shma Shtatlar vakili, Shtatlar kotibi, Xazina kotibi bilan maslahatlashganidan so'ng, jamoaga e'lon qilib va uning fikrini bilgan holda ushbu bo'lim qanday o'zgarilishi kerakligini aniqlaydi va biznes jamoasi amaldagi qonunni muhofaza qilish siyosatini, ushbu bo'limning oldingi shartlariga mos ravishda kerakli qaror chiqaradi va –

(1) Adliya vazirligiga mansub bo'lgan, amaldagi qonun orqali odatdagi sotuv eksporti va biznes shartnomalariga aniq ish amaliyotning qanday bajarilishi to'g'risida ko'rsatmalarni Bosh prokuror ushbu bo'limning oldingi shartlarini qo'llash orqali belgilaydi; va

(2) Umumiy xavfsizlik jarayonini ushbu bo'limning oldingi shartlariga bog'liq Adliya Vazirligining qonunni muhofaza qilish siyosatiga moslashtirishda ko'ngilli asos sifatida ishlatishi mumkin.

Bosh prokuror ushbu ko'rsatmalar va jarayonlarni 5-Nizom 5-bo'limning II kichik bo'limi shartlariga muvofiq tarzda tuzishi kerak va ushbu ko'rsatmalar va jarayonlar nizomning 7-bo'limining shartlariga mos bo'lishi lozim.

(f) Bosh prokurorning fikrlari

(1) Bosh Prokuror, Amerika Qo'shma Shtatlarining barcha tegishli bo'limlari va agentliklari bilan maslahatlashganidan keyin jamoa va ishtirok etuvchi barcha shaxslarning fikrlarini bilgan holda, mahalliy jamoadan tushadigan aniq talablardan kelib chiqib, shu qismning yuqoridagi shartlariga bog'liq Adliya Vazirligining joriy dasturiga muvofiq tarzda, bajariladigan ish tartibini belgilashi kerak. Bosh Prokuror shunday talabni qabul qilganidan 30 kun o'tgach o'z fikrini bayon qilishi lozim. Uning fikri, Adliya Vazirligining joriy dasturini ko'zlagan holda amalga oshiriladigan harakat ushbu bo'limning shartlarini buzish-buzmasligini aniq tasdiqlashi kerak. Bundan oldin aytib o'tilgan jarayonning shartlariga to'g'ri kelmaydigan harakatlar haqidagi qo'shimcha qarashlar yozma ravishda Bosh Prokuror Idorasiga yuborilishi kerak. Mahalliy jamoa tomonidan talabnomada ko'rsatilgan, ushbu qismning shartlariga muvofiq tarzda amalga oshiriladigan har qanday jarayonda, Bosh prokurorning ushbu jarayonni Adliya Vazirligining amaldagi qonunni muhofaza qilish siyosatiga mos kelishini tasdiqlashi va ushbu jarayon bo'limning oldingi shartlariga mos kelish tasdig'i haqida hech qanday gumon bo'lmasligi kerak. Ushbu taxmin ashyoviy dalilllar ostida rad etilishi mumkin. Ushbu tushunchani paragrafnin shartlariga muvofik tarzda olsak, sud Bosh Prokurori topshirilgan ma'lumotlarga tegishli hamma faktorlarni to'g'ri va to'liq o'lchab ko'rish kerak. Bosh prokuror 5 nizomning 5 bo'limi II kichik bo'limiga binoan, ushbu jarayonni paragraf talabiga mos ravishda ishlab chiqishi kerak va ushbu jarayon nizomning 7 bo'limidagi qoidalarga tegishli bo'ladi.

(2) Mahalliy biznes talabnomasi ostida 1 paragrafga binoan ish jarayonini ishlab chiqishga bog'liq, Adliya Vazirligi yoki har qanday boshqa Qo'shma Shtatlar agentligi tomonidan o'rnatilgan, tayyorlangan, yoki qabul qilingan har qanday hujjat yoki ma'lumotlar 5 Nizomning 552 qismi ostida ma'lumot berishdan ozod qilinadi va Bosh Prokurorning talabnomaga javob berish-bermasligidan yoki mahalliy biznesning ruxsatisiz rasmiy namoyishga qo'yilmaydi.

(3) Paragraf (1) ostida Bosh Prokurorga talab yuborgan har qanday ijrochi Bosh Prokuror o'z fikrini bayon qilishidan oldin o'zining talabini qaytarib olishi mumkin. Qaytarib olingan talab hech qanday kuchga va ta'sirga ega bo'lmaydi.

(4) Bosh prokuror iloji boricha Adliya Vazirligining amaldagi muhofaza siyosati bo'yicha ushbu bo'limning shartlari mos ravishda bo'lajak eksportchilarga va bu bunday savollar bo'yicha maxsus maslahatlar ola olmagan kichik bizneslarga o'z vaqtida ko'rsatmalar bershi lozim. Ushbu ko'rsatma (1) paragraf ostidagi, bo'lajak maxsus boshqarmaning, ushbu qismdagi, majburiyatlarga rioya qilish umumiy tushunchalariga tegishli Adliya Vazirligining amaldagi qonunini muhofaza qilish siyosatiga mosligi to'g'risidagi talabnomaga bo'lgan javoblari cheklangan bo'lishi kerak.

(g) Jarimalar

(1) (A) Jismoniy shaxs bo'lmagan har qanday mahalliy biznes ushbu bo'limning (a) yoki (i) qismlaridagi qonunlarni buzsa \$2,000,000dan ko'p bo'lmagan miqdorda jarimaga solinadi.

(B) Jismoniy shaxs bo'lmagan har qanday mahalliy biznes ushbu bo'limning (a) yoki (i) qismlaridagi qonunlarni buzsa, Bosh prokuror tomonidan \$10,000,000dan ko'p bo'lmagan miqdorda fuqarolik jarimasiga solinadi.

(2) (A) Har qanday biznes egasi, rahbari, xizmatchisi, yoki mahalliy biznes agenti, yoki mahalliy biznesning vakili hisobida ishtirok etayotgan aksiyador bila turib ushbu bo'limning (a) yoki (i) qismlarini buzsa, \$100,000dan ko'p bo'lmagan miqdorda jarimaga solinadi yoki 5 yilgacha qamoq jazosiga tortiladi, yoki yuqorida ko'rsatilgan ikkala jazoga ham qo'llaniladi.

(B) Har qanday biznes egasi, rahbari, xizmatchisi, yoki mahalliy biznes agenti, yoki mahalliy biznesning vakili hisobida ishtirok etayotgan aksiyador ushbu bo'limning (a) yoki (i) qismlarini buzsa, Bosh prokuror tomonidan \$10,000,000dan ko'p bo'lmagan miqdorda fuqarolik jarimaga solinadi.

(3) Qachonki jarima (2) paragraf ostida biznes egasi, rahbari, xizmatchisi, yoki mahalliy biznes agenti, yoki mahalliy biznesning vakili hisobida ishtirok etayotgan aksiyadorga solinsa, bu jarima to'g'ridan-to'g'ri yoki boshqa yo'llar bilan mahalliy biznes tomonidan to'lanishi mumkin emas.

(h) Ta'riflar

Ushbu bo'lim uchun:

(1) "Mahalliy biznes" atamasi quyidagini bildiradi--

(A) Amerika Qo'shma Shtatlarida yashovchi va fuqaro bo'lgan har qanday shaxs; va

(B) O'z faoliyatini Amerika Qo'shma Shtatlarida olib boradigan, yoki Amerika Qo'shma Shtatlari yoki uning hududlari, unga qarashli joylar yoki hamdo'st davlatlarning qonunlari ostida tashkil topgan har qanday korporatsiya, hamkorlik, uyushma, qo'shma korxonalar, ma'suliyati cheklangan shaklida tuzilgan tijorat, korporatsiyalashtirilmagan tashkilot yoki yakkahol mulkchi kiradi.

(2) (A) "Xorijiy Amaldor" atamasi har qanday tijorat egasi yoki xorijiy davlat yoki vazirligi yoki agentligi, yoki ular nomidan ish olib borayotgan agentlik, yoki jamoa xalqaro tashkiloti yoki har qanday tashkiloti uchun yoki xorijiy davlat yoki vazirligi yoki agentligi, yoki ular nomidan ish olib borayotgan agentlik, yoki jamoa xalqaro tashkiloti nomidan ish olib borayotgan xizmatchini anglatadi.

(B) Ushbu (A) paragraf uchun "jamoalar xalqaro tashkiloti" atamasi quyidagini bildiradi --

(i) Xalqaro Tashkilotlar Imunitetlari Aktining 1 bo'limiga binoan tuzilgan har qanday tashkilot (22U.S.C. § 288); yoki

(ii) Bu bo'lim maqsadlari uchun President tomonidan Ijroiyy Buyruq orqali tashkil etilgan har qanday boshqa xalqaro tashkilot, ushbu buyrug'ning Federal Ro'yxatga kiritilgan namoyish sanasidan boshlab kuchga kiradi.

(3) (A) Shaxsning bilish holati bu "bilib turib": biron narsani, sharoitni yoki natijani bilgan holda bajarish, agar--

(i) Ushbu shaxs ma'lum shaxsning ma'lum bir jarayonga aloqasi borligidan, shunday vaziyatning mavjudligidan va bu qanday natijaga olib kelishidan xabardor bo'lsa; yoki

(ii) Shunday shaxs xaqiqatdan ham shunday vaziyat borligi yoki qanday natija kelib chiqishi to'g'risida to'laqonli ishonchga ega bo'lsa.

(B) Qachonki aniq bir vaziyatning mavjudligiga bog'liq axborot qonunbuzarlik uchun talab etilsa, agar shaxs shu vaziyatning mavjudligi to'g'risida aniq dalilga ega bo'lsa ushbu axborot tasdiqlanadi.

(4) (A) "doimiy hukumat harakati" atamasi xorijiy amaldor tomonidan har doim, tez-tez bajarilib turadigan harakatni bildiradi. Ularga quyidagilar kiradi --

(i) shaxsga xorijiy mamlakatda ish olib borishi uchun ruxsatnoma, guvoohnoma va boshqa kerakli hujjatlarni berish;

(ii) viza, ish buyruqlari va shunga o'xshash davlat hujjatlari ustida ishlash;

(iii) Politsiya himoyasini, xat olish yoki ularni yetkazib berishni ta'minlash, yoki shartnoma bajarilishi yoki narsalarni mamlakat orqali ko'chirishga asoslangan tekshiriluvlar vaqtini belgilash;

(iv) telefon xizmatlari, elektr va suv ta'minoti, yuklarni ortish va tushirish, tez buziladigan mahsulotni avaylash va boshqa narsalarni buzilishdan saqlash; yoki

(v) shunga o'xshash amaliyotlarni bajarish.

(B) "Davlatning doimiy harakati" atamasi o'z ichiga xorijiy davlat amaldori tomonidan ayrim partiya tegishli yangi biznes ochish uchun yoki bu biznesni quvvatlash uchun, yoki uning qay holda chiqarganiga qaramay qaror chiqarishda xorijiy amaldor ishtirok etgan, yangi biznes ochishda yoki uni quvvatlashda qaror chiqarishi kirmaydi.

(5) "Shtatlar aro savdo" atamasi Shtatlardagi, yoki har qanday xorijiy mamlakat va har qanday Shtat o'rtasidagi tijorat, savdo, yoki aloqani anglatadi, va ushbu atama o'z ichiga quyidagilarni Shtatlar aro qo'llanishini oladi --

(A) telefon va boshqa aloqa yo'llari, yoki

(B) har qanday davlatlar aro ish yuritish

(i) Muqobil Yurisdiksiya

(1) (a) kichik qismning (1), (2) va (3) paragraflarida ko'rsatilganidek, har qanday Amerika Qo'shma Shtatlari shaxsi poraxo'rlik bilan, Amerika Qo'shma Shtatlaridan tashqarida bironta shaxsga yoki tashkilotga pul taklif qilishi, to'lashi, va'da berishi, yoki to'lov uchun buyruq berishi, yoki sovg'a va'da qilish yoki uning berilishiga buyruq berishini oldinga surish uchun pochta yoki har qanday davlatlararo tijoratda ushbu sovg'a, to'lov, va'da va buyruqlarni davom ettirishi qonunga zid hisoblanishi lozim.

(2) "Amerika Qo'shma Shtatlari shaxsi" deb ushbu Immigrasiya va Fuqarolik Aktining (8 U.S.C. § 1101) 101 qismida ishlatilganidek, Amerika Qo'shma Shtatlarida yashovchi shaxs, yoki o'z faoliyatini Amerika Qo'shma Shtatlarida olib boradigan, yoki Amerika Qo'shma Shtatlari yoki uning hududi, unga qarashli joylar yoki hamdo'st davlatlarning qonunlari ostida tashkil topgan har qanday korporatsiya, hamkorlik, uyushma, qo'shma korhona, ma'suliyati checklangan tijorat, korporatsiyalashtirilmagan tashkilot yoki yakkahol mulkchi kiradi.

§ 78dd-3. Ijrochi yoki mahalliy biznesdan boshqa shaxslarga man etilgan xorijiy tijorat amaliyotlari

(a) Ta'qiq

1934 yilning Qimmatbaho qog'ozlar va Almashinuv Aktining 30A qismida qayd etilgan, ijrochidan boshqa har qanday shaxs, yoki shu Aktning 104 qismida kiritilgan aniqlikka ko'ra - mahalliy biznes, yoki har

qanday rahbar, amaldor, yoki shu shaxsnig xodimi yoki ushbu shaxs nomidan ish yurituvchi har qanday aksiyadorning, Qo'shma Shtatlar hududida bo'la turib, har qanday ma'noda shtatlar aro savdo agentliklarini poraxo'rlikka undab, ularga pul taklif qilishi, yoki to'lashga va'da berishi, yoki har qanday qiymatdagi pul to'lashga buyruq berishi, yoki taklif qilishi, sovg'a, berishga va'da, yoki qimmatbaho qiymatga ega bo'lgan har qanday narsalarni—

(1) Quidagi maqsadlarini ko'zlab har qanday xorijiy amaldorga berishi noqonuniy hisoblanadi--

(A) (i) Xorijiy amaldorning o'z mansabini suiste'mol qilib, har qanday harakatga yoki qarorga ta'sir ko'rsatishga undashi, (ii) shunday xorijiy amaldorni noqonuniy harakatlarni qilishga majburlashi yoki shunday harakatni e'tiborsiz qoldirishi, yoki (iii) har qanday nomuvofiqlikni ustun saqlashi; yoki

(B) Ushbu shaxsga tijorat faoliyatini qo'lga kiritishda, saqlab qolishda, yoki tijoratni boshqa shaxsga topshirish yo'lida yordam berish maqsadida,

Shunday xorijiy amaldorni, siyosiy partiyani, yoki nomzodni o'z nufuzini xorijiy hukumatning va shu hukumatning ish uslubiga ta'sir ko'rsatishga undash orqali, ushbu hukumatning har bir harakati va qaror chiqarishiga yoki ish uslubiga ta'sir o'tkazish.

(2) har qanday xorijiy siyosiy partiya yoki amaldor, yoki xorijiy siyosiy mansab nomzodiga quyidagi maqsadda –

(A) (i) o'z kuchi yoki mansabini ishlatib shunday partiyaning yoki nomzodning harakatiga yoki qaror chiqarishiga ta'sir ko'rsatmoq (ii) shunday partiya, amaldor, yoki nomzodning qonunga qarshi ish olib borish yoki noqonuniy harakatni e'tiborsiz qoldirishga undash, (iii) yoki noqonuniy jarayonni qo'llab-quvvatlash; yoki

(B) Ushbu shaxsga tijorat faoliyatini qo'lga kiritishda, saqlab qolishda, yoki tijoratni boshqa shaxsga topshirish yo'lida yordam berish maqsadida,

Shunday xorijiy amaldorni, siyosiy partiyani, yoki nomzodni o'z nufuzini xorijiy hukumatning va shu hukumatning ish uslubiga ta'sir ko'rsatishga undash orqali, ushbu hukumatning har bir harakati va qaror chiqarishiga yoki ish uslubiga ta'sir o'tkazish.

(3) Har qanday shaxs, shunday pullarning yoki narsalarning hammasi yoki ayrim qismi to'g'ridan to'g'ri yoki boshqa yo'l bilan har qanday xorijiy amaldorga, siyosiy partiyaga, yoki xorijiy siyosiy amaldorga taklif qilinishini, berilishini, va'da berilishini bila turib, ushbu maqsadda—

(A) (i) o'z kuchi yoki mansabini ishlatib shunday partiyaning yoki nomzodning harakatiga yoki qaror chiqarishiga ta'sir ko'rsatmoq (ii) shunday partiya, amaldor, yoki nomzodning qonunga qarshi ish olib borish yoki noqonuniy harakatni e'tiborsiz qoldirishga undash, (iii) yoki noqonuniy jarayonni qo'llab-quvvatlash; yoki

(B) Ushbu shaxsga tijorat faoliyatini qo'lga kiritishda, saqlab qolishda, yoki tijoratni boshqa shaxsga topshirish yo'lida yordam berish maqsadida,

Shunday xorijiy amaldorni, siyosiy partiyani, yoki nomzodni o'z nufuzini xorijiy hukumatning va shu hukumatning ish uslubiga ta'sir ko'rsatishga undash orqali, ushbu hukumatning har bir harakati va qaror chiqarishiga yoki ish uslubiga ta'sir o'tkazish.

(b) Davlatning doimiy harakatlariga mustasno

Ushbu bo'limning quyi (a) va (i) qismi xorijiy vakil, siyosiy partiya rasmiysining doimiy davlat harakatini bajarilishini ta'minlashi uchun beriladigan har qanday to'lovni tezlashtirishda qo'llanilmaydi.

(c) Ijobiy mudofaa

Bu bo'limning (a) qismidagi harakatlar ijobiy mudofaa deb hisoblanadi--

(1) To'lov, sovg'a, taklif yoki biron bir qimmatbaxo narsani va'da etish chet el rasmiysining, siyosiy partiyaning, siyosiy rasmiyning yoki nomzodning mamlakatida qonun va qoidalarga muvofiq bo'lsa; yoki

(2) Amalga oshirilgan va va'da qilingan biror to'lov, sovg'a yoki va'da etilgan qimmatbaho buyum xorijiy va partiya rasmiylarining sayohati va turar joy to'lovlariga asoslangan holda to'g'ridan to'g'ri quyidagilarga bogliq bo'lsa--

(A) Lavozimda ko'tarilish, namoyish yoki mahsulot yoki xizmatlarning bayonnomasi; yoki

(B) Xorijiy davlat yoki ageliklar bilan shartnoma tuzish yoki shartnoma ustida ishlash

(d) Sud ta'qiqlari

(1) ushbu bo'limga ta'luqli bo'lgan har qanday shaxs, yoki amaldor, rahbar, xizmatchi, agent yoki aksiyachi (a) bo'limidagi buzuvchi harakatga aloqador bo'lsa, yoki aloqador bo'lish jarayonida bo'lsa, Bosh prokuror ehtiyotlik bilan ushbu harakat yoki amaliyotni Amerika Qo'shma Shtatlarining mansub tuman sudida fuqarolik ishini qo'zg'aydi va ushbu harakat tasdiqlansa, doimiy ta'qiq yoki vaqtinchalik cheklov, pul bulan vaqtinchalik chiqarishga ruxsat bermaydi.

(2) Fuqarolik tekshiruv ishlarini olib borish maqsadida, Bosh prokurorning fikri bo'yicha ushbu bo'limni kiritish va joriy qilish lozim. Bosh prokuror yoki uning belgilagan shaxslar qasam ictirish va aniqlash, guvohlarni tekshirish, dalillarni to'plash, Bosh prokurorning fikricha ish jarayoniga tegishli hisob-kitob va boshqa kerakli hujjatlarni to'plashni amalga oshitishga vakolat berishi mumkin. Guvohlarning qatnashishi va dalillik hujjatlarini to'plash Amerika Qo'shma Shtatlari, uning hududlari va hamdo'slik davlatlarda amalga oshirilishi va belgilangan joyda sud o'tkazilishi mumkin.

(3) Har qanday guvohning sudga kelmasligi, yoki sudga kelish taklifnomasiga bo'ysunmasligi, Bosh prokuror shunday tekshiruvlar va jarayonlarni o'z ichiga kiritadigan yurisdiksiya, ushbu shaxs yashash joyi, yoki ish amaliyotini olib borish joyi dalillik ko'rsatmasi berilishi talab qilingan yoki tegishli qog'ozlar va tegishli hujjatlar talab qilinishida Amerika Qo'shma Shtatlarining har qaysi sudidan yordam so'rashi mumkin. Shu sud ushbu shaxsni Bosh prokuror yoki u tomonidan belgilangan shaxsning oldiga kelishini, agar talab qilingan bo'lsa hujjatlarni tavsiya qilishni, ko'rsatmalar berishni va ushbu tekshirish borasida guvohlik berishni talab qilishi mumkin. Sudning shunday buyrug'iga bo'ysunmaslik mensimaslik deb topilib ayblanadi.

(4) Shunday holatdagi hamma harakatlar ushbu shaxs istiqomat qilish tumanida yoki u topilgan tumanda bajariladi. Bosh prokuror shunday fuqarolik tekshiruviga ta'luqli qonunni oldingi bo'limlarni amalda oshirish uchun shart yoki to'g'ri deb topishi mumkin.

(e) Jarimalar

(1) (A) Har qanday yuridik shaxs ushbu qismning (a) kichik qismidagi qonunlarni buzsa, Bosh prokuror tomonidan \$2,000,000 dan ko'p bo'lmagan miqdorda jarimaga solinadi.

(B) Har qanday yuridik shaxs bila turib ushbu qismning (a) kichik qismidagi qonunlarni buzsa, \$10,000dan ko'p bo'lmagan miqdorda fuqarolik jarimasiga solinadi

(2) (A) Har qanday jismoniy shaxs bila turib ushbu qismning (a) kichik qismidagi shartlarni buzsa, \$100,000 dan ko'p bo'lmagan miqdorda jarimaga solinadi yoki 5 yilgacha qamoq jazosiga tortiladi, yoki tepada aytilgan ikkala jazoga tortiladi.

(B) Har qanday jismoniy shaxs (a) qismni buzsa, Bosh prokuror tomonidan \$10,000 dan ko'p bo'lmagan miqdorda fuqarolik jarimasiga solinadi.

(3) Qachonki jarima (2) paragraf ostida biznes egasi, direktori, xizmatchisi, yoki mahalliy biznes agenti, yoki mahalliy biznesning vakili hisobida ishtirok etayotgan aksiyadorga solinsa, bu jarima to'g'ridan-to'g'ri yoki boshqa yo'l bilan mahalliy biznes tomonidan to'lanishi mumkin emas

(f) Ta'riflar

Ushbu bo'lim maqsadlari uchun:

- (1) "shaxs" atamasi qonunbuzarga aloqasi bo'lgan taqdirda, Qo'shma Shtatlar fuqarosi (8 U.S. C. § 1101 da belgilanganidek) yoki xorijiy davlat qonunlari ostida tuzilgan har qanday korporatsiya, qo'shma korxonalar, assotsiyatsiya, qo'shma aksioner kompaniya, korporatsiyalashtirilmagan tashkilot, yoki yakkahol xo'jalikdan boshqa har qanday jismoniy shaxsni anglatadi
- (2) "chet el rasmiysi" atamasi har qanday xodim yoki xorijiy hukumat xizmatchisi yoki har qanday vazirlik, agentlik, yoki o'rtadagi shaxs, yoki jamoat xalqaro tashkiloti, yoki shunday davlat, vazirlik, agentlik, yoki o'rtadagi shaxs tomonidan boshqaruv olib borayotgan shaxs, yoki ular uchun, yoki ular nomidan yuqoridagi shunday xalqaro tashkilot nomidan ish olib borayotgan shaxsni bildiradi.

Quyidagi paragraph (A) uchun, "jamoat xalqaro tashkilot" ma'nosi quyidagini bildiradi –

- (i) Xalqaro Tashkilot Immunitetlari Aktining 1 qismiga binoan Ijroi Buyruq bo'yicha tuzilgan tashkilot (22 U.S.C. § 288); yoki
 - (ii) Bu bo'lim uchun Prezidentning Ijroi Buyrug'i bilan tashkil etilgan har qanday boshqa xalqaro tashkilot o'zining faoliyatini Federal Ro'yxatdan o'tganidan boshlab tan olinadi.
- (3) (A) biron bir shaxning idroki bu bajarib, vaziyat, yoki natijaga bog'liq agar –
- (i) Shunday shaxs ma'lum shaxsning ma'lum bir jarayonga aloqasi borligidan, shunday vaziyatning mavjudligidan va bu qanday natijaga olib kelishidan xabardor bo'lsa; yoki
 - (ii) Shunday shaxs haqiqatdan ham shunday vaziyat borligi yoki qanday natija kelib chiqishi to'g'risida to'laqonli ishonchga ega bo'lsa.

(B) Agar ayrim vaziyatning mavjudligi jinoyat qilish uchun bilim talab etsa, agar shaxs shunday vaziyatning kelib chiqishiga qattiq ishonsa shu vaziyatning mavjudligi juda yuqori, agar shaxs shunga astoydil ishonmasa shunday vaziyat mavjud emas.

- (4) (A) "doimiy hukumat harakati" atamasi faqatgina quyida ko'rsatilgan, xorijiy rasmiyning oddiy va tez-tez bajarib turadigan harakatini bildiradi—
 - (i) Shaxsga xorijiy davlatda biznes yuritish imkonini beruvchi ruxsatnomalar va boshqa hujjatlar;
 - (ii) Viza va ish faoliyatini bajarish haqida buyruq kabi davlat hujjatlarini amalga oshirish;
 - (iii) politsiya himoyasi bilan ta'minlash, xatlarni olish yoki ularni yetkazib berish, yoki shartnoma bajarilishini yoki kerakli narsalarni mamlakat orqali ko'chirishga bog'liq tekshiruv vaqtlarini belgilash;
 - (iv) telefon xizmatlari, chiroq va suv bilan ta'minlash, yuklarni ortish va tushirish, tez buziladigan maxsulotlarni avaylash va narsalarni sifatsizlanishdan saqlash; yoki
 - (v) shunga o'xshagan boshqa amaliyotlarni bajarish.

(B) "Davlatning doimiy harakati" atamasi o'z ichiga xorijiy davlat amaldori tomonidan ayrim partiya tegishli yangi biznes ochish uchun yoki biznesni quvvatlash uchun, yoki uning qay holda chiqarganiga qaramay, qaror chiqarishda xorijiy amaldor ishtirok etgan, yangi biznes ochishda yoki uni quvvatlashda qaror chiqarishi kirmaydi.

(5) "Shtatlar aro savdo" atamasi Shtatlardagi, yoki har qanday xorijiy mamlakat va har qanday Shtat o'rtasidagi tijorat, savdo, yoki aloqani anglatadi, va ushbu atama o'z ichiga quyidagilarni Shtatlar aro qo'llanishini oladi--

(A) telefon va boshqa aloqa yo'llari, yoki

(B) har qanday davlatlar aro ish yuritish.

§ 78ff. Jarimalar

(a) Bila turib qonunbuzarlik; yolg'on va aldamchi ko'rsatmalar

Ushbu bo'limning har qanday shartlarini bila turib buzgan shaxs (ushbu nizomning 78dd-1 bo'limi bundan mustasno), yoki har qanday qonun va qoidalarni buzsa yoki qonunbuzarlik kuzatilsa, ushbu qism ostida, yoki har qanday shaxs bila turib ushbu nizomning 78o bo'limining (d) qismida noto'g'ri ko'rsatmalar bersa, talab qilingan bayonotlar va boshqa hujjatlarni bironta tashkilot bilan hamkorlikda, a'zolik tashkiloti bilan birgalikda olib borilgan ishlar keltirilgan dalillarga suyangan holda noqonuniy deb topilsa \$5,000,000 dan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima solinadi, yoki 20 yilgacha qamoq jazosi beriladi, yoki tepadagilarning ikkisi. Bundan mustasno: agar ushbu shaxs fuqarolikni olmagan shaxs bo'lsa, jarima \$25,000,000 dan oshmasa unda u qamoq jazosiga tortilishi mumkin; lekin ushbu bo'lim bo'yicha agar ushbu shaxs bunday qonun va qoidalarning borligini bilmaganligini isbotlasa u holda ushbu bo'lim ostida u shaxsga qamoq jazosi berilmaydi.

(b) Hisobotlarni, dalolatnomalarni, hujjatlarni topshirish jarayonini amalga oshira olmaslik

Nizomning 78o qismining (d) kichik qismida va boshqa talablarga binoan tuzilishi talab etilgan bayonotnoma, hujjat, yoki axborotlarni tuzishda muvaffaqiyatsizlikka uchragan har qanday ijrochi, hujjatlashtirishni davom ettirish uchun har bir muvaffaqiyatsizlikka uchragan kun uchun \$100 miqdorda Qo'shma Shtatlarga jarima to'lashi kerak. Ushbu qismning (a) kichik qismi ostida kelib chiqishi mumkin bo'lgan, har qanday qonunbuzarlik jarimasi hujjatlashtirishdagi muvaffaqiyatsizlik uchun to'lanadigan qonunbuzarlik jarimasi o'rnida bo'lishi kerak bo'lgan ushbu jarima Qo'shma Shtatlar Xazinasiga to'lanishi kerak.

c) Ijrochilar, amaldorlar, rahbarlar, aksiyadorlar, xizmatchilar yoki ijrochining xodimlari tomonidan bajarilgan qonunbuzarliklar

(1) (A) Har bir ijrochi ushbu nizomning 30A qismi [15 U.S.C. § 78dd-1] (a) yoki (g) qismlarini buzsa, \$2,000,000 gacha bo'lgan miqdorda jarima solinadi.

(B) Nizomning 30A qismining (a) yoki (g) kichik qism tartiblarini buzgan har bir ijrochi [15 U.S.C. § 78dd-1] Kommisiya tomonidan \$10,000 dan ko'p bo'lmagan miqdorda fuqarolik jarimasiga tortilishi kerak.

(2) (A) Har qanday biznes egasi, rahbari, xizmatchisi, ijrochining xodimi, yoki ijrochi nomidan ish yurituvchi aksiyador bila turib nizomning 30A [15 U.S.C. § 78dd-1] bo'limining (a) yoki (g) kichik qismlarini buzsa, \$100,000 dan ko'p bo'lmagan miqdorda jarimaga solinadi yoki 5 yilgacha qamoq jazosiga tortiladi, yoki tepada aytilgan ikkala jazoga tortiladi.

(B) Har qanday biznes egasi, rahbari, xizmatchisi, ijrochining nomidan ish olib borayotgan aksiyador nizomning 30A [15 U.S.C. § 78dd-1] bo'limining (a) yoki (g) kichik qismlarini buzsa, \$10,000 miqdordan ko'p bo'lmagan fuqarolik jarimasiga tortiladi va bu buyruq Komissiya tomonidan belgilanadi.

(3) Qachonki jarima (2) paragraf ostida biznes egasi, rahbari, xizmatchisi, xodimi yoki ijrochining aksiyadoriga solinsa bu jarima to'g'ridan-to'g'ri yoki boshqa yo'l bilan ijrochi tomonidan to'lanishi mumkin emas.